

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

HUJJATLI QISSADA SYUJET UNSURLARI

(Alinazar Egamnazarovning “Siz bilgan Dukchi Eshon” hujjatli qissasi misolida)

Anvar Allambergenov,
filolofiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti katta ilmiy xodimi
anvarallambergenov11@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada Alinazar Egamnazarovning “Siz bilgan Dukchi Eshon” hujjatli qissasi syujet nuqtayi nazaridan tahlilga tortilgan. Qissa voqealarining syujet elementlariga mos keladigan o‘rinlaridan parchalar keltirilgan. Tahlillar davomida nazariy adabiyotlardan syujet elementlarining ta’riflari bilan bog‘liq ko‘chirmalar olingan. Tahlillardan kelib chiqqan holda maqola yakunida tegishli xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Syujet, syujet unsurlari, qissa, hujjatli qissa, hujjatlar, arxiv materiallari, tarix, tarixiy haqiqat, yozuvchi, ekspozisiya, kulminatsiya, tugun.

Аннотация: В данной статье анализируемая документальная повесть Алиназара Эгамназарова «Сиз билган Дукчи Эшон» с точки зрения сюжета. Представлены отрывки из событий повести, соответствующие элементам сюжета. В ходе анализа были взяты выдержки, связанные с определениями элементов сюжета, из теоретической литературы. На основе анализа в конце статьи даны соответствующие выводы.

Ключевые слова: Сюжет, элементы сюжета, повесть, документальный рассказ, документы, архивные материалы, история, исторический факт, писатель, экспозиция, кульминация, узел.

Abstract: This article analyzes the documentary story “Siz bilgan Dukchi Eshon” by Alinazar Egamnazarov from the point of view of the plot. Excerpts from the events of the story corresponding to plot elements are presented. During the analysis, excerpts related to the definitions of plot elements were taken from the theoretical literature. Based on the analysis, corresponding conclusions are given at the end of the article.

Key words: Plot, plot elements, story, documentary story, documents, archival materials, history, historical fact, writer, exposition, climax, node.

Hujjatli qissaning birlamchi muhim jihati uning aniq faktlarga tayanilgan holda yozilishidir. Adabiyotshunoslik bo‘yicha chop etilgan ko‘pgina kitoblarda fabula voqealarning hayotdagi yuz berish tartibi, syujet esa hayotdagi voqealarning badiiy asardagi tartibi deb bayon etilgan. Demak, hujjatli asarlarda faktlar yetakchilik qilishi birlamchi bo‘ladi degani hayotiy voqealarni fabula tarzda bayon qilish shart degan talabni qo‘ymaydi. Quruq faktlar, arxiv materiallaridan ko‘chirmalar, yillar, raqamlar, bayon qilinayotgan voqea yuzasidan chiqarilgan qarorlar va shu kabi ko‘plab xat va hujjatlar o‘quvchining hujjatli asarni o‘qishdan zeriktirishi mumkin. Bu holat esa hujjatli asarlarni faqatgina xoslar uchun bo‘lib qolishiga olib boradi. O‘zbek adabiyotida hujjatli asarlar kam bo‘lsada bor. Bular sirasiga: Abdulla Qodiriyning mashaqqatli hayot va ijod yo‘li bayon qilingan Xurshid Do‘stmuhammadning

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

“Yolg‘iz”, Nabijon Boqiyning “Qatlnoma” qissalari, shuningdek, Nabijon Boqiy qalamiga mansub Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayoti tilga olingan “Qizil toshbo‘ron” romani, Fozilbek Otabek o‘g‘lining “Dukchi Eshon voqeasi” qissasi, Alinazar Egamnazarovning “Siz bilgan Dukchi Eshon” qissasi kabi har xil janrlarda yaratilgan hujjatli asarlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Tadqiqotimizga ob‘yekt sifatida Alinazar Egamnazarovning “Siz bilgan Dukchi Eshon” hujjatli qissasini syujet nuqtayi nazaridan tahlilga tortishga harakat qilamiz. Avvalo muallif haqida to‘xtalib o‘tish o‘rinli nazarimizda. Alinazar Egamnazarov 1941 yil 1 mayda Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi Xonobod qishlog‘ida tug‘ilgan. Toshkent davlat universiteti filologiya fakultetining jurnalistika bo‘limida (1959–1964) tahsil olgan. Mehnat faoliyatini 1964 yilda “Sirdaryo haqiqati” gazetasida oddiy xodimlikdan boshlab, keyinchalik “Toshkent oqshomi” gazetasida (1968–1987), “Sharq yulduzi” jurnalida (1987–1997), “O‘zbek Milliy ensiklopediyasi” nashriyotida (1998–2002), O‘zbekiston teleradiokompaniyasi Toshkent xalqaro radiosida (2000–2005) xizmat qildi. Alinazar Egamnazarov dolzarb ijtimoiy-axloqiy mavzudagi maqolalari, ocherklari, feletonlari, hikoyalari, hajviyalari, hujjatli qissalari bilan adabiy jarayonda faol qatnashib keladi. “Ustozga ta‘zim” (1980), “Muqaddas uy” (1986), “Ochig‘ini aytganda” (1986), “Yigirma milliondan biri” (1990), “Siz bilgan Dukchi Eshon” (1994), “Surgun” (1999), “Quvnoq muxbirning sarguzashtlari” (2000), “Oqlovdan so‘ng” (2011), “Latif hangomalar” (2013) kabi kitoblari nashr qilingan. Tarjimon sifatida bir qancha xorij yozuvchilari, jumladan, Susanna Gaziyans va Arkadiy Marning “Asrlar va mamlakatlar osha” (1991), Rajab Islombekning “Tahlikali zamonlar” (1997) kitoblarini o‘zbek tiliga tarjima qildi. Istiqloq yillarida u: mustaqilligimiz uchun kurashganlar, Stalin qatag‘oni qurbonlari haqida ko‘plab ocherklar, hujjatli qissalar, axloq-odob mavzusida maqolalar yozdi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Alinazar Egamnazarov 2003-yilda “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlangan. Mustaqilligimizning 20 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi e‘lon qilgan “Vatan uchun yashaylik” tanlovida “Ovloqdan so‘ng” kitobi uchun g‘olib deb topilgan.

Endi bevosita tahlillarga kirishsak. Hujjatli asarda hujjat birlamchiligini saqlagan holda muallif o‘zining ijodiy niyatidan kelib chiqib: syujet unsurlarini tartibini o‘zgartirishi, ularni kuchaytirishi (voqealar rivojini tezlashtirishi yoki cho‘zishi, tugunni boshida yoki o‘rtasida berishi kabi) yoki o‘zgartirmasligi ham mumkin.

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

Ma’lumki prolog syujetning tarkibiy qismi sifatidan syujet unsurlari qatorida sanalsada barcha asarlarda ham uchrayvermaydi. Prolog — “muallif tomonidan yozilib, adabiy asar boshida keltiriladigan, asarning qisqacha mazmuni, uning yozilishiga turtki bo‘lgan omillar va muallif niyati bayon qilingan o‘ziga xos muqaddima”.¹ “Siz bilgan Dukchi Eshon” hujjatli qissasida syujetning dastlabki unsurlaridan bo‘lmish prolog “Muallifdan” degan sarlavha bilan keltiriladi. “Mustamlaka zulmini ko‘rgan barcha xalqlar singari Turkiston xalqlarining ham o‘z ozodligi va mustaqilligi uchun kurash tarixi, bu yo‘lda jonini fido qilgan unutilmas qahramonlari bor. O‘tgan asr oxirida bo‘lgan (ya’ni XIX asr. A.A) Andijon qo‘zg‘olonining rahbari Muhammadali xalfa Sobir o‘g‘li — Dukchi Eshon ana shunday qahramonlardan biridir”.² Qolaversa, asar prologida yuqorida sanab o‘tilganlardan qissaning nima haqida ekanligi qisqacha berilgan, yozilishiga turtki bo‘lgan omillar va muallifning ushbu asarni yozishda bevosita yordam bergan qator tashkilotlar va ularning xodimlariga minnatdorchiligi izhor etilgan.

Syujet unsurlaridan yana biri bu ekspozitsiyadir. Syujetning bu unsuri muallifning ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda asarning istalgan joyida berilishi mumkin. Lekin uning asos qismi asardagi asosiy tugun yuzaga kelgunicha berilishi lozim. Qolgan bo‘lak va qismlari asar bo‘ylab sochilib ketishi yoki yig‘iq tarzda berilgan bo‘lishi ham mumkin. “Ekspozitsiya — syujet komponenti, personajlarning bevosita tugun yuzaga kelishi vaqtida kechgan hayoti, asosiy konflikt yetilgan shart-sharoitlar tasviri. Ekspozitsiya o‘quvchini asar voqealari kechgan joy, voqea ishtirokchilari bo‘lmish personajlar, konfliktni yuzaga keltirgan shart-sharoitlar bilan tanishtiradi, uni syujet voqealarini idrok etishga tayyorlaydi”.³ Tahlil qilayotganimiz “Siz bilgan Dukchi Eshon” hujjatli qissasida ekspozitsiya “Samarqanddan kelgan telegramma” deb berilgan dastlabki qismdan boshlanadi. U yerda real hayotda Muhammadali xalfa ya’ni Dukchi Eshon qo‘zg‘olonining yuzga kelish omillari qanday bo‘lganligi haqida gap ketadi. Ta’kidlanganidek ekspozitsiya tugunni yuzaga keltiruvchi omillarni badiiy asar sahniga olib chiqishi lozim. Hujjatlar asosida ekspozitsiyaning berilishi bu hujjatli asardagi o‘ziga xosliklardan biri deyishimiz mumkin. Qissaning dastlabki qismida katta-kichik hajmli 10 ta telegramma keltirilgan. Bu telegrammalarning e’tibor tortar jihatlaridan biri shundaki, bularning kim tomondan yozilganligi va kimga yozilganligi, yozilish vaqtining aniq ko‘rsatilganligidadir. Ahamiyatlisi “maxfiy” tamg‘asi bilan berilgan telegrammalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilgan va ular yig‘ilib qissaning asosiy ekspozitsiyasini tashkil

¹ Salayev F. Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. –T.: Yangi asr avlodi. 2010-yil 187-bet

² Egamnazarov A. Siz bilgan Dukchi Eshon. –T.: Adabiyot. 2022-yil 9-bet

³ Quronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr 2013-yil 362-bet

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

qilgan. O‘quvchida telegrammalar mazmunidan kelib chiqib, bo‘layotgan voqealarni chetdan kuzatib turgandek taassurot uyg‘onadi. Ular orqali “isyonchilar”ning qo‘zg‘oloni va ularni bostirishdagi ko‘rilgan chora-tadbirlar haqida ma‘lumot oladi. Qissaning “Isyonkor Eshon izidan” deb nomlangan qismida esa voqealarni “isyonkor”lar ichida turib kuzatish imkoniga ega bo‘ladi. Shu voqealar tasviri jarayonlarida muallif syujetning konsentrik, retrospektiv tiplaridan mohirona foydalangan. Masalan, qissaning dastlabki qismida keltirilgan telegrammalarning biridagi Dukchi Eshon ushlanganligidan xabardor bo‘lishimiz mumkin. Lekin muallif retrospektiv syujet tipini qo‘llagan holda Eshonning ushlanishi bilan bog‘liq tafsilotlarni beradi. “Eshonni ushlash shunday bo‘lgandi” deb gap boshlanadi va hujjatli asar tartibi taomili doirasida, faktlar, aniq raqamlar bilan batafsil bayon etiladi. Bu bayon quruq so‘zdan iborat emas. Xat, hujjat, dalil, isbot barchasi izma-izlikda berib boriladi. Bunday faktlarni bir biriga ulashda muallif mahorati, uslubiy o‘ziga xosligi yorqin namoyon bo‘ladi. Bir fakt ikkinchi faktga mohirona payvandlanadi. Shu zaylda bir xabarning ikkinchi xabarga ulanishi xuddi badiiylilik mahsulidek taassurot uyg‘otadi.

Syujet unsurlari — ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminasiya, yechim va epilogdan iborat. Lekin prolog va epilog bevosita syujetning tarkibiy qismi sifatida talab etilmaydi. Bu ikki unsur muallifning ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda badiiy asarda keltirilishi ham mumkin, keltirilmasligi ham mumkin. “Prolog (yu. Pro – oldidagi, logs – so‘z) — adabiy asarning kirish qismi, muqaddima. Prologlar mazmun mundarijasiga ko‘ra turlicha bo‘ladi: asarning yozilish sababini izohlash, asosiy mazmuni muhtasar bayon etish, asar vaqtigacha yuz bergan voqealarning qisqa bayoni va hokozolar. Shunga ko‘ra prologlar turli badiiy-yestetik maqsadlarga xizmat qiladi: o‘quvchini asar voqealariga olib kirish, tasvirlanajak voqealarning yuz berish omillari haqida umumiy tasavvur berish, muayyan emosional-hissiy holat hosil qilish va hokozolar”⁴ni o‘z qamroviga oladi. “Siz bilgan Dukchi Eshon” qissasida prolognamo qismlar mavjud. Lekin aynan prolog keltirilmaydi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak dastlabki qismda asar muqaddimasi berilmaydi, lekin asardagi voqealarning sabablarini ayonlashtiruvchi hujjatlar keltiriladi. Hujjatli qissaning hujjatlar bilan boshlanishi janrning to‘g‘ri tanlanganidan darak beruvchi dastlabki omil bo‘lib hisoblanadi.

Qissa ob‘yekti sifatida tanlangan shaxs hayoti va u shaxs boshchiligidagi qo‘zg‘alon ko‘pchilik uchun qiziqarli hisoblanadi. Buning qator sabablari mavjud. Qiziqarli voqeani yanada ta’sirli qilib bayon etish bayonchining mahoratiga ham

⁴ Quronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr 2013-yil 236-bet

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

bog‘liq. E’tibor tortar o‘rinlarda badiiyat qorishmasini berish maqsadida tanlangan yo‘ldan og‘ish kuzatilmaydi. “Ertalab soat 6 da harbiylar Massa qishlog‘iga kirib borishdi. Bu qishloq oqsoqoli ham ishonchli yigitlardan 15 nafarini to‘plab, Qozonli Mozor tomonga borib, Eshonning yo‘lini kesishni buyurgan edi. Og‘abekov yigitlari olg‘a borib, kunduzi soat birga yaqin, sobiq bo‘lis boshlig‘ining otasi Qodirqulni uchratishdi. U o‘g‘li o‘rniga o‘n uch yigit bilan kelgan, bu yigitlar bitta birotar miltiq, 3 ta to‘pponcha 2 qilich bilan qurollangan edilar”.⁵ Qissa ekspozitsiyasining berilishida ham ko‘rish mumkinki yuz berayotgan voqeaning aniqligi, personajlar va qo‘llanilayotgan detallar sonining nihoyatda aniqligi hujjatli qissa ekspozitsiyasining butunligini ta‘minlagan. Bu butunlik asar qahramonlari va ularning harakat etayotgan o‘rinlarining butun tafsilotlarigacha berilishi va keyingi harakatlar uchun o‘quvchida taxminiy taassurotlar uyg‘otishida kuzatiladi.

“Ekspozitsiyaning hamma qirralari asar boshida to‘la tasvirlanishi shart emas, aksincha, eng yaxshi yozuvchilar asar kompazitsiyasiga oid ikkinchi darajali tafsilotlarni bayon etishni keyinroqqa qoldirib, qahramonlarni tezroq harakatga keltirishga intiladi”.⁶ Shu ma‘noda Alinazar Egamnazarov ham ekspozitsiyaning ayrim qirralarini asarning avvalida berib o‘tgan bo‘lsa, ba‘zi qirralarini asarning boshqa o‘rinlarida beradi. Asar syujetning qaysi bir unsuri keltirilsa ham Muhammadali xalfa ya‘ni Dukchi Eshon tashqaridan kuzatiladi. Uning kechinmalari va holati ichdan ochilmaydi. Bu holatni hujjatli qissa yo‘sinining taqozosi deya izohlashimiz mumkin. Ba‘zi adabiyot nazariyasi kitoblarida asarning umumiy ekspozitsiyasidan tashqari yirik obrazning ham o‘ziga xos mustaqil ekspozitsiyasi bo‘lishi qayd etilgan. Hujjatli asarda hujjat birlamchi bo‘lganligi boisdan bu qissada obraz ekspozitsiyasiga ko‘p ham e’tibor qaratilavermaydi.

Syujetning asosiy unsurlaridan biri bu — tugun. “Siz bilgan Dukchi Eshon” hujjatli qissasida berilgan tugun hayotiy voqeaning badiiy asardagi bo‘yalmagan, bejalmagan, haqqoniy aksi. Qissada tugun “Isyonkor Eshon izidan” deb nomlangan bobda beriladi. Tugun berilishidan oldin, tugungacha bo‘lgan sabablar ham atroflicha ko‘rsatib o‘tiladi. “Tugun — epik va dramatik asarlardagi voqeaband syujetning muhim unsuri, voqealarning boshlanishiga turtki bo‘lgan voqea, asar konflikti qo‘yilgan joy. Tugun syujetning zaruriy elementi sanaladi, ya‘ni u syujetda har vaqt hozirdir. Tugun odatda asarning boshlanishida, ekspozitsiyadan (agar u bo‘lsa) keyinroq beriladi. Muayyan badiiy-estetik maqsadni ko‘zda tutgan holda tugunning

⁵ Egamnazarov A. Siz bilgan Dukchi Eshon. Toshkent. Adabiyot 2022-yil 24-bet

⁶ Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent. O‘qituvchi. 2005-yil 112-bet

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

o‘rni o‘zgartirilishi ham mumkin”.⁷ Qissa avvalida qo‘zg‘olon boshlanganligi haqida bosqinchilar o‘zlarining yuqori turuvchi turli xil tashkilot rahbarlariga xabarlar va rahbarlarning qo‘zg‘olonni bostirish bilan bog‘liq bo‘lgan topshiriq ma’nosidagi maxfiy nomi ostidagi telegrammalari aynan berilgan. Tugunni keltirib chiqargan omillar esa biroz tahlil talab. Shu ma’noda faktlar va ma’lumotlar o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun muallif tomonidan biroz izohlashlar, sharhlashlar berib o‘tiladi. Izoh va sharhlar keltirilgan ma’lumotdan og‘ishmagan holda shu ma’lumot doirasida berilgan. Shu tariqa tugunga olib keluvchi omillar bir-bir ko‘rsatib o‘tilgan.

Syujetning keyingi borishi voqealar rivoji bilan bog‘lanib ketadi. “Voqealar tuguni yuzaga kelgach, u qandaydir tarzda o‘sib rivojlanib boradi. Syujetdagi voqealarning ma’lum tugundan keyin kengayib, chuqurlashib borish jarayoni — voqea rivoji deyiladi. Tugun to‘satdan kutilmaganda yuzaga kelishi mumkin. Biroq voqea rivoji bir-biriga bog‘liq jarayonga aylanib, uzoq davom etadi. Ya’ni voqealar rivoji voqealar tuguni bilan voqealar kulminasiyasi oralig‘ida kechadi”.⁸ Qissada voqealar rivoji ba’zi o‘rinlarda muallif tilidan topilgan ma’lumotlar asosida berilsa, ba’zi o‘rinlar asar qahramonlarining bizgacha yetib kelgan hujjatlar asosida masalan, Asalbib Ortiqboy qizining hikoyasi, Muhammadali xalfa hikoyasi tarzida berilishini ham kuzatish mumkin.

Syujetning eng zarur elementlaridan biri bu — kulminasiyadir. “Siz bilgan Dukchi Eshon” hujjatli qissasining kulminasiyon nuqtasi “G‘azovot” bobida berilgan. Bob boshqa boblarga qaraganda hajm jihatdan biroz kichkina, lekin asar uchun asos bo‘lgan eng katta voqea shu bobda berilgan. Ahamiyatlisi shundaki hayotiy kulminasiyon voqea asarga ham hayajonli tarzda ko‘chgan. Fakt birlamchiligi bu o‘rinda ham yetakchilik qilgan. “Qo‘zg‘olon boshlanishidan bir necha kun avval mahalliy mansabdor shaxslar kelib, eshon tayyorlagan murojaatnoma yoki qasamyodga o‘z muhrlarini bosishdi. Andijon lageriga hujum paytida halok bo‘lgan mulla Ziyovuddin Maxsumdagi Qur’on ichidan chiqqan bu murojaatnomada shunday deyilgan edi”,⁹ — deyiladi va murojaatnoma to‘liq beriladi. Hujjatlardagi ma’lumotlar va muallif bayoni tarang tarzda beriladi. Dukchi Eshon va unga ergashganlarning hayqiriqlar bilan qo‘zg‘olonga otlanishi voqealari bilan bob yakunlanadi.

Undan keyingi boblarda qo‘zg‘olon bilan bog‘liq yozishma, telegrammalar maxfiy, “mutlaqo maxfiy” nomi ostida beriladi. Bundan tashqari qaydlar, voqea

⁷ Quronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr 2013-yil 237-bet

⁸ Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi 2017-yil 83-bet

⁹ Egamnazarov A. Siz bilgan Dukchi Eshon. Toshkent Adabiyot nashriyoti 2022-yil 54-bet

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

guvohlari yoki shu voqea atrofidagi odamlar, voqeaga guvoh bo‘lgan odamlarning aynan o‘zidan eshitganlarning tilidan berilgan matnlar keltiriladi.

Va nihoyat qissa yakunida yigirma sahifaga yaqin aniqrog‘i o‘n sakkiz sahifa ko‘lamida “Muhammadali Sobir o‘g‘li — milliy istiqlol kurashchisi” deb nomlangan oxirgi bobi keltiriladi. Bobni qissaning epilogi deyishimiz mumkin. Butun qissa mobaynida hujjatlilikdan chekinolmagan ortiqcha pafosga berilmagan muallif uchun syujetning bu unsuri juda qo‘l kelganligini alohida ta’kidlashimiz kerak. Bu o‘rinda ham hujjatlilik yetakchilik qiladi, lekin muallifning o‘tmishimizga boqib, millat boshidan kechgan kunlarni o‘rganib ich-ichidan achinishlarini yillari, raqamlar, voqealar ketmaketigi, chigal vaziyatlar bayonida ham sezilib turadi.

Umuman olganda hujjatli qissada ham muallifning oldiga qo‘ygan vazifasiga qarab syujetning barcha turlari qo‘llanilishi yoki badiiy qissalar singari ba’zi turlari qo‘llanilgan holda ba’zilarini asarga tadbiq qilmaslik ham mumkin ekan. Syujet unsurlari borasida ham shunday deyish mumkin. Muallif o‘zining uslubidan kelib chiqqan holda syujetning ba’zi unsurlaridan unumli foydalanishi, ba’zilaridan esa umuman foydalanmasligi ham mumkin ekan. Tahlilga tortganimiz Alinazar Egamnazarovning “Siz bilgan Dukchi Eshon” hujjatli qissasida syujet unsurlaridan samarali foydalangan. Hujjatlarga asoslangan holda ko‘pchilik uchun qiziqarli, o‘qishli qissa yozgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Salayev F. Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. – T.: Yangi asr avlodi. 2010 yil.
2. Egamnazarov A. Siz bilgan Dukchi Eshon. –T.: Adabiyot. 2022 yil.
3. Quronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr 2013 yil.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –T.: O‘qituvchi. 2005 yil.